

Xizmatlar sohasining rivojlanishi – iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini

Xizmatlar sohasi zamонавиқ иқтисодийотни ривожланишинг асосиyo'налышлари орасида устунлик мавqeини egallaydi.

Bu murakkab ko'p qirrali mexanizm bo'lib, savdo va transportdan tortib ta'lif va sug'urta xizmatlarigacha bo'lgan keng doiradagi faoliyatni qamrab oluvchi zamонавиқ iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Restoran va mehmonxona, sartaroshxona va ta'mirlash ustaxonalari, sport klublari va ta'lif muassasalari, sayyohlik kompaniyalari, auditorlik va konsalting kompaniyalari, banklar, poliklinikalar, sanatoriylar, dam olish uylari - bularning barchasi xizmatlar sohasiga taalluqlidir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1848,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Uning nominal hajmi 417,9 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 18,4 % ni tashkil etdi.




Xizmatlarning umumiyligi hajmida Jizzax shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 55,1 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Aholi jon boshiga hajmi, ming so'm
Jizzax viloyati	1848,5	118,4	1360,3
Jizzax shahri	1019,2	124,8	5817,4
tumanlar:			
Arnasoy	30,2	109,5	664,9
Baxmal	68,3	112,8	445,5
G'allaorol	107,7	109,4	639,4
Sh.Rashidov	162,5	111,5	754,5
Do'stlik	109,4	111,4	1696,9
Zomih	97,7	111,6	608,2
Zarbdor	41,7	109,5	495,4
Zafarobod	24,6	112,4	500,1
Mirzacho'l	51,1	111,1	1008,1
Paxtakor	62,8	111,7	857,6
Forish	58,3	114,9	638,9
Yangiobod	15,1	111,8	543,7

Shuningdek, eng katta ulush Sh.Rashidov (8,8 %), Do'stlik (5,9 %), G'allaorol (5,8 %) va Zomih (5,3 %) tumanlarida qayd etilgan.

2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi va o'sish sur'atlari, %



Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Yangiobod (0,8 %), Zafarabad (1,3 %), Arnasoy (1,6 %), Zarbdor (2,3 %) va Mirzacho'l (2,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy davrda eng yuqori o'sish sur'atlari Jizzax shahrida (124,8 %), Forish (114,9 %), Baxmal (112,8 %) va Zafarobod (112,4 %) tumanlarida qayd etildi.


Shahar va tumanlarda xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatgan alohida xizmat turlarining ko'rsatkichlari



Nisbatan past o'sish sur'atlari Jizzax shahrida (101,5 %), G'allaorol (102,4 %) va Do'stlik (107,8 %) tumanlarida kuzatildi.

O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 285,4 ming so'mga oshdi va 1360,3 ming so'mga teng bo'ldi, o'sish 16,0 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm




Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Jizzax shahri etakchi o'rinni egallaydi. Bu erda aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 5817,4 ming so'm ekvivalentida qayd etildi.

Baxmal (445,5 ming so'm), Zarbdor (495,4 ming so'm), Zafarobod (500,1 ming so'm) tumanlarida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi boshqa hududlar bilan taqqoslaganda nisbatan past.

2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 272,3 ming so'mga oshdi.

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining 2019-yil yanvar-may oylariga va 2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan oshishi, ming so'm



Jizzax shahrida o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1471,5 ming so'mga oshdi. Shu bilan birga, o'tgan davrga nisbatan 1195,0 ming so'mga o'sish kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishi Forish (13,2 %), Zafarobod va Baxmal (10,3 %), va Paxtakor (9,7 %) tumanlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida

shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Nisbatan yuqori bo'Imagan o'sish sur'atlari Sarbdor (107,1 %), G'allaorol (107,3 %), Arnasoy (108,0 %), Sh.Rashidov (108,3 %), Mirzacho'l (108,7 %) va Zomin (109,2 %) viloyatlarida qayd etildi.


Xizmatlar faoliyatining xilma xilligi, shuningdek, xizmatlar sohasidagi turli faoliyatlar o'rtaсидаги о'заро munosabatlar ushbu sohaning jadal rivojlanishi uchun omil bo'lib xizmat qiladi.

Misol uchun, mehmonxona xizmatlari umumiy ovqatlanish xizmatlari, savdo va maishiy sohaga tegishli xizmatlarni chetlab o'tmaydi. Mazkur holatlarda birining boshqasiga chambarchas bog'liqligini kuzatish mumkin.

Ichki talabni muvozanatli rag'batlantirish va mahalliy xizmat ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha ko'rileyotgan choralar xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabining tarkibidagi o'zgarishlarni ta'minladi. Transport va mobil aloqa xizmatlari, oilaviy

tadbirlar va dam olishni tashkil qilish, Internet xizmatlari, maishiy, sog'lijni saqlash va ta'lif xizmatlariga bo'lgan talab ortdi.


2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha umumiy xizmatlar tarkibida ustun xizmat turlarining taqqoslanishi, %



Deyarli barcha hududlarda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga ko'rsatilgan xizmatlar tarkibida moliyaviy va transport xizmatlari, savdo, aloqa va axborotlashtirish kabi xizmatlarning ulushini ortishi ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (197,3 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (129,4 %), t'alim xizmatlari (119,9 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (111,2 %), va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (110,1 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



**2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	1848,5	118,4
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	93,9	110,1
Moliyaviy xizmatlar	383,3	197,3
Transport xizmatlari	306,1	102,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	295,7	101,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	55,5	111,2
Savdo xizmatlari	633,2	106,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	50,7	106,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	73,5	119,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	32,0	107,6
Ijara xizmatlari	39,7	101,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	49,7	101,4
Shaxsiy xizmatlar	55,5	101,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	26,8	129,4
Boshqa xizmatlar	48,6	104,7

Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlari (101,2 %), ijara xizmatlar (101,3 %), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlari (101,4 %) kuzatildi.

Joriy davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida transport xizmatlari ulushi eng katta 16,6 % ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari hajmining oshishi yuk va yo'lovchi tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmog'ini kengaytirish, binolar va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni davom etishi bilan bog'liq.

2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %




Shu bilan birga, eng yuqori ulush savdo xizmatlari (34,3 %), moliyaviy xizmatlar (20,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(5,1 %), ta'lif sohasidagi xizmatlar (4,0 %), shuningdek ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (2,7 %) kuzatildi.

Savdo tarixiy jarayonning eng qudratli omillaridan biri hisoblanadi. Tarixda bunday davr yo'qki, ijtimoiy hayotga uning ta'siri kamroq yoki ko'proq darajada ko'rsatilmagan payti bo'limgan, mamlakat ichida oddiy ayirboshlash bilan boshlanib va butun dunyo bo'yicha tarqalgan murakkab tijorat operatsiyalari tarmog'i bilan yakunlanadi.

Har xil turdag'i savdo munosabatlari doimo ijtimoiy hayotning turli jihatlariga javob beradi.

Savdo xizmatlari




2019-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 34,3 % ni tashkil etib, bu 633,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uchi – 79,3 % ga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 16,1 % ga yetdi.


Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-iyun oylarida
savdo xizmatlari tarkibi, %**



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlarining tarkibi, %



Biroq, Jizzax shahrida ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi sezilarli darajada yuqori bo'ldi – 43,6 %, Do'stlik (11,1 %), Sh.Rashidov (8,5 %).

Ushbu xizmatlarning eng kichik ulushi Zafarobod (1,1 %), tumanida qayd qilindi.

Bugungi kunda etakchi o'rirlarni nafaqat savdo va transport kabi doimiy yangilanib borayotgan an'anaviy faoliyat turlari, balki tez o'sib borayotgan bilimga asoslangan biznes va ijtimoiy-madaniy xizmatlar ham egallaydi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 383,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 191,6 mlrd. so'mga oshdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 89,7 % ni tashkil etadi.




Zamonaviy biznesni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit hozirgi zamon infratuzilmasidan foydalanish hisoblanadi. Yirik bozorlar, Internet-savdo, xom-ashyo, komponentlar va texnologiyalarni izlash, reklama va marketing faoliyati, jarayon va texnologiyalar tizimini boshqarish, shuningdek raqamli tizimlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar bazalari zamonaviy tashkilotning majburiy xususiyati hisoblanadi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 93,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sishi 10,1 % ga etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,1% ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet

tarmog'i, yo'l doshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 99,2 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyot xizmatlari 0,4 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar – 0,3 %, boshqa xizmatlar – 0,1 % ni tashkil etadi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyatga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.


Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2019-yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 73,5 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 19,9 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng katta hajmi Jizzax shahrida qayd etildi. 2019 yil yanvar-iyun oylarida 49,7 mlrd. so'mga yetdi. Buning sababi, oliy o'quv yurtlari hamda to'lov-kontrakt asosida xizmat ko'rsatadigan xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallarining katta qismi bu erda joylashganligidadir.

2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida ta'lif sohasidagi xizmatlarning hajmi va o'sish sur'atlari



Ta'lif sohasidagi xizmatlarning yuqori o'sish sur'ati Do'stlik tumanidatida – 168,9 % ni tashkil etdi.


Bundan tashqari, ta'lif sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari G'allaorol (148,0 %), Jizzax shahrida (119,2 %), Sh.Rashidov (118,2 %) va Paxtakor (117,2 %) tumanlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida eng past o'sish sur'ati Zarbdor tumanida – 105,8 % qayd etildi.

2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 111,2 % ni tashkil etdi, hajmi esa 10,1 mlrd. so'mga oshdi va 55,5 mlrd. so'mga etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 90,0 % bilan ustunlik qiladi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



Ushbu turdag'i xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Jizzax shahrida 25,9 mlrd. so'mni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,5 mlrd. so'mga oshishi qayd etildi.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm**



Arnasoy tumani -
0,3 mlrd.so'm

Baxmal tumani -
0,7 mlrd.so'm

Paxtakor tumani -
0,9 mlrd.so'm

Zarbdor tumani -
1,0 mlrd.so'm

Zarbdor tumani -
1,1 mlrd.so'm

Do'stlik tumani -
1,3 mlrd.so'm



Jizzax shahri -
25,9 mlrd.so'm

Forish tumani -
7,2 mlrd.so'm

Sh.Rashidov -
7,2 mlrd.so'm

Zomin tumani -
4,8 mlrd.so'm


G'allaorol tumani -
2,6 mlrd.so'm

Mirzasho'l tumani -
2,0 mlrd.so'm

Viloyatida sog'lqnini saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, aholining yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga maxsus va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan, eng avvalo, uning dastlabki bo'ginini, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada isloh qilish aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 32,0 mlrd. so'mga teng bo'lди. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,6 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlarning sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiylajmida ulushi va hajmi



Hududlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha etakchi o'rinni Jizzax shahri egallaydi, joriy yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi 15,5 mlrd. so'mga ko'paydi. Shu bilan birga, nisbatan yuqori hajm Zomin (1,6 mlrd.so'm) va Sh.Rashidov (0,2 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

**Jizzax viloyati statistika bosharmasi
xizmatlar sohasi statisticasi bo'limi**
Ma'sul: N. Xoliqov
tel: 71-230-83-58
72-222-79-69